

PEDAGOGIKA YO'NALISHIDA MUZEYNI INTERAKTIV VA KREATIV O'QITISH VOSITASI SIFATIDA FOYDALANISH

Dadaboyev Suhrob Mansurjonovich

Namangan davlat pedagogika instituti

Pedagogika va psixologiya kafedrası o'qituvchisi

E-mail: dadaboyevsuhrob89@gmail.com

<https://doi.org/10.5281/zenodo.14810288>

Annotatsiya. Mazkur maqolada ta'lim jarayonida muzey pedagogikasidan foydalanishning dolzarb masalalari, muzeyni interaktiv va kreativ o'qitish vositasi sifatida foydalanish yo'llari, muzey pedagogikasining samaradorligini baholash bo'yicha fikr-mulohazalar yoritilgan.

Kalit so'zlar: muzey, interaktiv o'qitish, ijodiy faoliyat, kreativ o'qitish, interaktiv usullar, animatsiya, virtual tur, ilmiy ekspozitsiyalar, interaktivlik.

Аннотация. В данной статье освещены актуальные вопросы использования музейной педагогики в образовательном процессе, пути использования музея как интерактивного и креативного средства обучения, отзывы об оценке эффективности музейной педагогики.

Ключевые слова: музей, интерактивное обучение, творческая деятельность, креативное обучение, интерактивные методы, анимация, виртуальный тур, научные экспозиции, интерактивность.

Annotation. This article covers current issues of the use of museum pedagogy in the educational process, ways of using the museum as an interactive and creative teaching tool, opinions and considerations on assessing the effectiveness of museum pedagogy.

Key words: Museum, interactive teaching, creative activity, creative teaching, interactive methods, animation, virtual tour, scientific expositions, interactivity.

Barchamizga ma'lumki, muzeylar, o'zining tarixiy va madaniy boyliklari bilan nafaqat oliy ta'lim muassasalari, balki maktablardagi ta'lim jarayonida ham muhim o'rin tutadi. Ular interaktiv va kreativ ta'lim vositasi sifatida zamonaviy pedagogikada o'z ahamiyatiga ega. Muzeylar pedagogika yo'nalishida talabalarda nazariy bilimlarni emas, balki amaliy tajriba va ijodiy faoliyatni rivojlantirishga xizmat qiladi. Shu bois, muzeylar ta'limning ilg'or usullarini joriy etish, talabalarda tanqidiy va ijodiy fikrlashni shakllantirishda muhim vositaga aylanmoqda.

Muzeylar bilim olishning faqat vizual emas, balki hissiy va ijodiy jihatlarini rivojlantiradi. Pedagogika yo'nalishida muzeylar, asosan, talabalarning tarix, madaniyat, san'at va boshqa sohalardagi bilimlarini mustahkamlashga yordam beradi. Muzeylarning o'zgacha o'qitish usullaridan biri - interaktiv usullardir. Muzeylarda o'qitishda, odatda, ko'rgazmalar, ilmiy ekspozitsiyalar, interaktiv stendlar, animatsiyalar va virtual turlardan foydalaniladi.

Muzeyni interaktiv o'qitish vositasi sifatida qo'llash. Bu interaktivlik ta'lim jarayonini faqat passiv qabul qilishdan faol ishtirokga olib chiqish. Muzeylardagi ekspozitsiyalar va ko'rgazmalarga tegishli savollar, viktorinalar, master-klaslar va seminarlar talabalarga faol ishtirok etishga imkon beradi. Masalan, tarixiy muzeydagi bir narsa haqida gaplashish, uni o'rganish va talabalarga mavzuga bog'liq vazifalar berish, ularning tanqidiy fikrlash qobiliyatlarini rivojlantiradi.

Muzeylarda faol ishlash, shubhasiz, talabalarda mustaqillik va ijodiy ko'nikmalarni shakllantiradi. Ularning shaxs sifatida rivojlanishida kreativlik muhim o'rin tutadi. Muzeining kreativ ta'lim vositasi sifatidagi roli, o'z navbatida, talabalarning ijodiy va hayotiy ko'nikmalarini shakllantirishga ko'maklashadi.

Kreativlik muzeydagi o'quv jarayonining markaziy omillaridan biridir. Pedagogika yo'nalishida muzeyni o'qitish vositasi sifatida qo'llash, ko'pincha talabalarga yangicha va nostandart fikrlashga undaydi. Buning uchun muzeydagi amaliy mashg'ulotlar, ijodiy ko'rgazmalar, dizayni va san'at olishga yo'naltirilgan master-klaslardan foydalanish mumkin. Muzeiga sayohat vaqtida talabalarga turli vazifalar, masalan, biron bir davrning ijodiy ishi yoki tarixiy voqea haqida sochinenie yozish, yoki muzeyda ko'rgan ob'ekt haqida ta'rif berish, ularning ijodiy fikrlash va tushuncha yo'nalishida muhim bosqich hisoblanadi.

Shuningdek, kreativlik va interaktivlikni birlashtirishda muzeydagi virtual real'nost' (VR) texnologiyalari ham muhim o'rin tutadi. Muzeylardagi virtual sayohatlar, ko'rgazmalar va simulyatorlar yordamida talabalar o'zlarining hissiy va vizual bilimlarini yanada boyitishadi. Masalan, tarixiy voqealarni virtual tarzda qayd etish, talabalarga voqealarga hayotiy yangicha qarashni taqdim etadi va ularni faol ishtirokchiga aylantiradi.

Muzey pedagogikasining samaradorligini baholash, asosan, talabalarning bilim olishga bo'lgan qiziqishini oshirish va ularning ijodiy qobiliyatlarini rivojlantirishga ko'maklashish orqali amalga oshiriladi. Bundan tashqari, muzey o'quv jarayoniga ijodiy yondashuvni taklif etadi va talabalarga faqat ta'lim berish bilan cheklanmay, ularni kreativ ishlab chiqishga ham undaydi.

Xulosa o'rnida shuni aytish mumkinki, Muzeylarning ta'limga integratsiya qilinishi, talabalarning bilimlarini mustahkamlash, ularning ijodiy va tanqidiy fikrlash qobiliyatlarini rivojlantirishga katta ta'sir ko'rsatadi. Bu usullar talabalarni faol va mustaqil o'rganishga undaydi, shuningdek, ularning shaxs sifatida rivojlanishida muhim omil bo'lib xizmat qiladi. Muзей pedagogikasining zamonaviy talablarga javob beradigan ilg'or usullarini olish, ta'lim jarayonida ijodiy va innovatsion yondashuvlarni joriy etish uchun muhim qadam bo'ladi.

References:

1. 2019-yil 5-yanvardagi PF-5611-son Farmoni bilan tasdiqlangan «2019-2025 yillarda O'zbekiston Respublikasida turizm sohasini rivojlantirish Konsepsiyasi».
2. Lichtwark A. Obungen in der Betrachtung von Kunstwerken. – Berlin: Verlag von Bruno Cassire, 1909. – 230 p.
3. Насруллаева П.Н. Музейное дело в системе туризма. — Дагестанский государственный педагогический университет Кафедра «Социально-культурный сервис и туризм» г. Махачкала.